

MEDETSINA HAMDA UNDAGI TERMENLARNI O'RGANISH

Xaydarova Inobat Suvonkulovna

*Olmalig Abu Ali ibni Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi
farmakologiya , fiziologiya va laboratoriya fanlar kafedrasida kasbiy faoliyatda
chet tili fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Bugungi maqolamizda Tibbiy atamalarni semantik taqqoslash bizga so'z ma'nosining o'zgarishi va o'zgarmasligi bilan bog'liq bo'lgan almashinish qobiliyatini aniqlashga yordam berishi tibbiyot tibbiybiologik, klinik, tibbiyijtimoiy va gigiyenik fanlarga bo'linadi. Tibbiybiologik fanlarga: odam gavdasining tuzilishini o'rganadigan anatomiya, gistologiya va sitologiya; organizmning odatdagi holatini, unda kasallikning paydo bo'lishi, avj olishi, kechishi va yuz beradigan struktur hamda funksional o'zgarishlarni o'rganadigan normal fiziologiya va biokimyo; patologik anatomiya va patologii fiziologiya; organizmga dorilar ta'sirini urganadigan umumiy va klinik farmakologiya, shuningdek, mikrobiologiya, virusologiya va parazitologiya, tibbiyot genetikalari haqida yoritib berilgan.*

Kalit so'zi: *Anatomiya, gistologiya va sitologiya; organizmning odatdagi holatini, unda kasallikning paydo bo'lishi, avj olishi, kechishi va yuz beradigan struktur, fiziologiya va biokimyo; patologik anatomiya va patologii fiziologiya; organizmga dorilar ta'sirini urganadigan umumiy va klinik farmakologiya, shuningdek, mikrobiologiya, virusologiya va parazitologiya.*

Tibbiy atamalarni semantik taqqoslash bizga so'z ma'nosining o'zgarishi va o'zgarmasligi bilan bog'liq bo'lgan almashinish qobiliyatini aniqlashga yordam berdi. O.E.Nibekken batafsil ushbu yo'nalishni tahlil qilgan va ingliz biologiyasi va tibbiyotidagi sinonim atamalar hamda ilmiy terminologiyada lotin va yunon morfemalarining o'rnini bosishi to'grisida qisman o'rgandi. Bu masalani S.G.Berejan ham moldavan tili misolida archi-, extra-, ultra, supra-, super-, hype ustun qo'shimchalari bilan ko'rib chiqdi. (S.G.Berejan 20, 246-250). Morfema almashtirishning boshqa turi ham mavjud bo'lib, unda bir xil ma'noga ega bo'lgan lotin yoki yunoncha sinonim morfemalar so'zlarning semantik mazmuniga zarar yetkazmasdan bir-birini almashtiradi. Masalan, yunoncha giper-, poli-, plé(o)- bir xil ma'noga ega. Ular o'zaro almashinadigan va polidaktiliya (polidaktilizma), giperdaktiliya (ko'p barmoqlar, barmoqlarda beshdan ortiq barmoqlarning mavjudligi).(qo'l yoki oyoq), polymastie - pléomastie (ikkitadan ortiq sut bezlari mavjudligi), polythélie -hyperthélie (ikkitadan ortiq ko'krak borligi), politrixoz - gipertrikoz (gipertrikoz, haddan tashqari tuklilik) tipidagi sinonimik dubletlarni hosil qiladi. Morfemalarning almashinishi ba'zan lotincha elementlar o'rniga fransuzcha elementlarni qabul qilishiga olib keladi.Masalan, sous-cutané (sous-cutané emas),

hypodermique, surréflectivité (suprareflectivité) hyperréflectivité, sousdiaphragmatique -sous-phrénique, surtension. Morfemalarning nutqda qo'llanilishining o'ziga xos belgilarini ularni semantik sinflarda tahlil qilganda ko'rish mumkin, olingan natijalar kabi muhim ahamiyatga ega. subdomen tillari va darajalari bo'yicha o'rganilayotgan morfemalarning ko'rsatkichlari. O.S.Axmanova: "Morfema morfologik daraja birligi sifatida mazmun tizimining mos elementi bilan o'zaro bog'langan, shu til modellari bo'yicha ifoda tizimining eng kichik va muntazam takrorlanuvchi birligidir" deb ta'kidlagan. Xulosa. Ingliz tibbiyot terminlarining semantik hususiyatlari, ularning ma'nolari va turli shakllari bilan bog'liqdir. Ular tibbiyot sohasidagi maxsus bilim va tajribaga ega bo'lishni talab qiladi va o'rganuvchilarda nafaqat til bilimi hamda tibbiy bilimlarning ham bo'lishini taqazo etadi. Shu sababdan paralingvistik tibbiy terminlar ko'p xolatlarida asosan tibbiyot xodimlari tomonid ishlatiladi va mano kasb etadi. Bu terminlar o'zaro aloqalarga ham ega bo'ladi. **Tibbiyot, meditsina, tabobat** — kishilar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, umrni uzaytirish, kasalliklarning oldini olish, davolash haqidagi bilimlar va shu sohadagi amaliy tadbirlar majmui.

Tibbiyot tibbiybiologik, klinik, tibbiyijtimoiy va gigiyenik fanlarga bo'linadi. Tibbiybiologik fanlarga: odam gavdasining tuzilishini o'rganadigan anatomiya, gistologiya va sitologiya; organizmning odatdagi holatini, unda kasallikning paydo bo'lishi, avj olishi, kechishi va yuz beradigan struktur hamda funksional o'zgarishlarni o'rganadigan normal fiziologiya va biokimyo; patologik anatomiya va patologii fiziologiya; organizmga dorilar ta'sirini urganadigan umumiy va klinik farmakologiya, shuningdek, mikrobiologiya, virusologiya va parazitologiya, tibbiyot genetikasi va boshqa kiradi. Odam kasalliklari, ularni davolash va oldini olishni o'rganadigan klinik fanlar asosiy davolash usuliga ko'ra, terapiya va xirurgiyaga bo'linadi. Tibbiyotning ushbu qismlari ham, o'z navbatida, ma'lum organ, sistemalar kasalliklarini atroflicha o'rganishi, yo'nalishi bo'yicha turli sohalarga bo'linadi. Masalan, terapiyada kardiologiya, revmatologiya, nefrologiya, gastroenterologiya, gematologiya, geriatriya, ftiziatriya, pediatriya, nevrologiya, psixiatriya, dermatologiya va venerologiya, kurortologiya, fizioterapiya, rentgenologiya, terapevtik stomatologiya; xirurgiyazya, umumiy xirurgiyadan tashqari, akusherlik va ginekologiya xirurgiyasi, travmatologiya va ortopediya, anesteziologiya, reanimatologiya, neyroxirurgiya, onkologiya, urologiya, otorinolarologiya, oftalmologiya xirurgiyalari ajratiladi. Klinik fanlarning har birida bemorni tekshirish va kasallik belgilari semiotikaschni aniqlash usullari bo'limi bor.

Tashqi muhitning organizmga ta'siri va aholi sog'lig'ini muhofaza qilish tadbirlarini o'rganadigan tibbiy-ijtimoiy va gigiyen fanlarga ijtimoiy gigiyena hamda sog'liqni saqlashni tashkil etish, umumiy gigiyena, bolalar va o'smirlar gigiyenasi, kommunal gigiyena, ovqatlanish gigiyenasi, radiatsion gigiyena,

mehnat gigiyenasi, epidemiologiya va tibbiyot geografiyasi, shuningdek, tibbiyot etikasi va deontologiyasi kiradi.

Tibbiyotning bunday bo'linishi shartli, chunki ijtimoiy jarayonlar barcha tibbiyot fanlariga, shuningdek, ilmiyamaliy sohalar (harbiy tibbiyot, kosmik tibbiyot, sport tibbiyoti, sud tibbiyoti va boshqalar)ga bevosita taalluklidir. Tibbiybiologik fanlar uchun xarakterli bo'lgan eksperimental usul esa klinik va gigiyenik Tibbiyot sohasiga xam keng kirib bormoqda. Tibbiyot tabiiy fanlar (biologiya, fizika, kimyo) va ijtimoiy fanlar hamda texnika bilan chambarchas bog'langan.



Termin (lotincha: *terminus* — „chegara“, „had“) — bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi soʻz yoki soʻz birikmasi. Termin umumxalq tshtiga muayyan terminologik tizim orqali oʻtadi, binobarin, termin va umumisteʼmoldagi soʻzlar bir-birini toʻldiradigan leksik birliklardir. Sistem xarakterga egalik, oʻz terminologik maydonida bir maʼnolilikka moyillik, histuygʻuni ifodalamaslik, uslubiy betaraflik kabilar terminga xos xususiyatlardir. Biologiya, matematika, tilshunoslikda qoʻllanadigan „*funksiya*“ soʻzini koʻp maʼnoli termin sifatida emas, balki terminologik omonimlar, sohalararo sodir boʻlib turadigan reterminologik jarayon (bir soha termin ining ikkinchi soha termini sifatida qoʻllanishi) hosilasi tarzida qaralmogʻi lozim. Umumxalq leksikasiga doir qonuniyatlar termin hosil qilishda ham kuzatiladi. Soʻz bilan termin ning umumiy va xususiy tomonlari yetarli darajada ochib berilgan emas; kundalik turmushda keng isteʼmolda boʻlgan soʻzlar ayni paytda turli sohalarga doir terminlar hamdir. Masalan, *quloq*, *burun*, *tomoq* — anatomiya va tibbiyot; *gilam*, *sholcha*, *palos* — gilamdoʻzlik; *kitob*, *ruchka*, *daftar* — pedagogik soha terminlari boʻlish bilan birga umumxalq tilida faol qoʻllanadi.

Hozirgi kunda „termin“ soʻzi bilan bir qatorda „atama“, „istiloh“ soʻzlari ham ayni maʼnoda qoʻllanmoqda. Lekin ular „termin“ soʻzining hozirgi maʼnosini toʻliq ifoda eta olmaydi. „Atama“ soʻzi keng maʼnoda boʻlib, geografik obyektlar, atoqli nomlarga nisbatan qoʻllanadi. „Istiloh“ soʻzini esa termin maʼnosida tarixiy mavzulardagi matnlar (mas., adabiyot tarixi, Sharq falsafasi va boshqalar)da bermalol qoʻllash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Merriam-Webster's Medical Dictionary Mass Market Paperback. MerriamWebster Inc., – 2016. – 896 p.
2. Robinson A. Implementation of the Integrative Approach to Teaching Medical English for Academic Purposes / A. Robinson, Yu. Lysanets, O. Bieliaieva //
3. Актуальні питання лінгвістики, професійної лінгводидактики, психології і педагогіки вищої школи : збірник статей III Міжнародної наук.-практ. конф., Полтава, 31 травня – 01 червня 2018 р. – Полтава : Вид-во «Астрая», 2018. – С. 273–281.
4. I. Znamenska. Medical English. Student's Book. / I. Znamenska, O. Bieliaieva, O. Pisotska, K. Havrylieva. – Vinnytsia: Nova Knyha, 2020. – 264 p.
5. BEJENAR G. I. Structural-semantic characteristics of French medical terms: Autoref. dis. ... sugar. Philol. -L., 1973. 20 p.
6. AKHMANOVA O. S. Dictionary of linguistic terms. -M.: Encyclopedia, 1969. - 607 p